

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” Dostonidagi O‘Z Va O‘Zlashgan Qatlamga Kiruvchi Antroponimlar

Davlatnazarov Davlatnazar Ro‘zmatboy o‘g‘li¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida qo‘llanilgan antroponimlarning lug‘aviy tarkibi ya‘ni qaysi qatlamga mansubligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: antroponim, real nom, noreal nom, atoqli otlar...

Onomastika tilshunoslikning har qanday atoqli otlarni, ularning paydo bo‘lish va o‘zgarish tarixini o‘rganuvchi bo‘limi, shuningdek, tildagi barcha atoqli otlar yig‘indisini o‘zida ifodalaydi. Onomastika fani atoqli nomlarni olgan obyektlarni toifalariga ko‘ra bo‘limlarga ajratadi. Shulardan biri antroponim (yunoncha: antropos - antropos + onoma-atoqli ot) – kishi atoqli oti (ism, familiya, laqab, taxallus, patronim va boshqalar). Ma‘lum bir tilda mavjud bo‘lgan barcha kishi atoqli otlari majmui antroponimiya deb yuritiladi.² Antroponimika yoki ismshunoslik esa onomastikaning kishi atoqli otlari (antroponimlar)ning paydo bo‘lishi, rivoji va vazifaviy xususiyatlarini o‘rganuvchi bo‘limidir. O‘zbek antroponimlarini ilmiy asosda to‘plash va o‘rganish ishlari XIX asr oxiri–XX asr boshlarida boshlangan edi. XX asrning 70-yillarida o‘zbek nomshunosligi mustaqil soha sifatida shakllanishi bilan uning tarkibidagi antroponimika (ismshunoslik)ka oid tadqiqotlar ko‘lami ham kengaydi. Shu davrdan boshlab o‘zbek antroponimiyasi xilma-xil yo‘nalishda o‘rganiladigan bo‘ldi. O‘zbek antroponimikasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar XX asrning 80-yillariga kelib, uning tarkibida turkiy qatlamni o‘rganishga e‘tibor berildi. Masalan, G‘.Sattorov “O‘zbek ismlarining turkiy qatlami” mavzusida nomzodlik ishini qimoya qildi.³ Mustaqillik yillarida o‘zbek antroponimikasiga oid tadqiqotlar doirasi yana ham kengaydi.

Dostonlar onomastikasida kishi nomlari– qahramonlarga qo‘yilgan nomlar ya‘ni antroponimlar majmuasi alohida bir guruhni tashkil etadi. Bu nomlar ham o‘z navbatida etnografik va lingvistik jihatdan alohida guruhlarga ajraladi. Ma‘lumki, o‘zbek xalqi tarixiy davrlar mobaynida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqada bo‘lib kelgan. Bu aloqalar o‘zaro aloqada bo‘lgan xalqning tiliga ma‘lum darajada o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Tildagi o‘zgarish va rivojlanish tilning leksikasida kuchli bo‘ladi. O‘zbek xalq dostonlarining onomastikasidagi atoqli nomlar genetik jihatdan aslida qaysi tildan kelib chiqishiga qarab guruhlarga ajratiladi. Biz tahlil qilishni maqsad qilgan “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni leksikasidagi antroponimlar ham qaysi qatlamga mansubligiga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Dostonda qo‘llanilgan o‘z qatlamga kiruvchi antroponimlar.

2. Dostonda qo‘llanilgan o‘zlashma qatlamga kiruvchi antroponimlar.

Dostonda quyidagi tillarga mansub ismlarning qo‘llanilishiga guvoh bo‘lamiz: arabcha, forsha, tojikcha, o‘zbekcha va boshqa tillar. Quyida esa doston tarkibidagi antroponimlarning qaysi lug‘aviy qatlamga kirishi yuzasidan qilingan tahlili bilan tanishamiz.

Dostonda qo‘llanilgan o‘z qatlamga kiruvchi antroponimlar. Bu turga kiruvchi ismlar sof turkiy (o‘zbekcha) nomlar hisoblanadi. Masalan:

¹ UrDU talabasi

² Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. Наманган, 2006. -Б. 13.

³ Сатторов Ғ.Ҳ. Ўзбек исмларининг туркий қатлами. Н.Д.А. - Тошкент, 1990. - 19 б



*Mari yurtining Qovishtixon degan xoni bor edi. Qovushtixonning **To'liboy** sinchi degan bir o'g'li bor edi.*⁴

Bu yerda qo'llangan **To'liboy** ismi sof turkiycha (o'zbekcha) bolib, ma'nosi to'liq, kam-ko'stsiz qilib berilgan bola, ya'ni uzoq yashaydigan degan ma'noni anglatadi.

*Taka turkman degan bir yurt bor edi. Bu yurtda **Jig'alixon** degan bek bor edi.*⁵

Jig'alixon sof turkiy (o'zbek) tilida boshida qaydaydir belgi bilan tug'ilgan bola degan ma'noni bildiradi.

Dostonda qo'llanilgan o'zlashma qatlamga kiruvchi antroponimlar. Bu turga kiruvchi ismlar boshqa tillardan bizning tilimizga kirib kelgan arabiy, forsiy hamda yunon tillaridan kelib chiqqan antroponimlar hisoblanadi. Masalan:

➤ **Arab tilidan o'zlashgan antroponimlar:**

*Burungi zamonda Yovmit degan el, Mari degan yana bir qo'rg'on bor edi. Yovmit yurtining **Odilxon** degan podshosi bor edi.*⁶

Odilxon nomi arab leksikasidan o'zlashgan bo'lib, haqgo'y, adolatli, insofli inson⁷ degan ma'nolarni anglatadi.

*Odilxonning **Bibi Oysha** degan qizi ham bor edi.*⁸

Oysha ismi arabcha hisoblanadi va yashovchi, barhayot, joni toshdek mustahkam qiz⁹ kabi ma'nolarni ifodalaydi.

*Odilxon podshoning ikki o'g'li bolib, kattasining oti Urayxon, kichkinasining oti **Ahmadbek** edi.*¹⁰

Kelib chiqishi arabcha bo'lgan **Ahmad** nomi Allohga ko'p hamd-u sanolar aytuvchi kishi maqtovga, olqishga sazovor inson¹¹ kabi ma'nolarni bildiradi.

*Taka Turkman degan yana bir yurt bor edi. Bu yurtda Jig'alixon degan bek bor edi, Jig'alixonning Gajdumbek degan o'g'li, **Bibi Hilol** degan qizi bor edi.*

Qizlarga qo'yiladigan arabcha nomlarda yana biri **Hilol** ismi yangi chiqqan oy, bir-ikki kunlik oy chiqqan kechada tug'ilgan qiz¹² degan ma'nolarni anglatadi.

➤ **Fors-tojik tilidan o'zlashgan antroponim:**

*Bibi Oyshaning bo'yida bolib, oy-kuni to'lib o'g'il tug'di. Otini **Ravshanbek** qo'ydi.*¹³

Fors-tojik tilidan o'zlashgan **Ravshanbek** nomi yorug', nurli, shu'lali, porloq, tiniq, pok, g'am-g'ussasiz, charog'on yoki iqboli porloq, kuchli, idrokli, tolei yorqin bola¹⁴ degan ma'nolarni ifodalaydi.

⁴ Xalq og'zaki ijodi. Go'ro'g'lining tug'ilishi. Nashrga tayyorlovchi: Malik Murodov. –Toshkent: Yangiyul Poligraph Service,2019. 3-bet.

⁵ O'sha asar, 4-bet.

⁶ O'sha asar, 3-bet.

⁷ Э.А.Бегматов. Ўзбек исмлари маъноси: (Изоҳли луғат). –Т,: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007, 307-бет.

⁸ Xalq og'zaki ijodi. Go'ro'g'lining tug'ilishi. Nashrga tayyorlovchi: Malik Murodov. –Toshkent: Yangiyul Poligraph Service,2019. 3-bet.

⁹ Э.А.Бегматов. Ўзбек исмлари маъноси: (Изоҳли луғат). –Т,: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007, 60-бет.

¹⁰ Xalq og'zaki ijodi. Go'ro'g'lining tug'ilishi. Nashrga tayyorlovchi: Malik Murodov. –Toshkent: Yangiyul Poligraph Service,2019. 3-bet.

¹¹ Э.А.Бегматов. Ўзбек исмлари маъноси: (Изоҳли луғат). –Т,: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007, 32-бет.

¹² Ўша асар, 573-бет.

¹³ Xalq og'zaki ijodi. Go'ro'g'lining tug'ilishi. Nashrga tayyorlovchi: Malik Murodov. –Toshkent: Yangiyul Poligraph Service,2019. 4-bet.



➤ **Yunon tilidan o‘zlashgan antroponim:**

*Barcha hukamo, qur’andoz-munajjimlarning ichida Yusuf degan bir qur’andozi bor edi.*¹⁵

Qadimiy yunon tilidan o‘zlashgan **Yusuf** antroponimi o‘sgan, ko‘paygan¹⁶ kabi ma’nolarni bildiradi. Undan tashqari Yaqub payg‘ambarning o‘g‘li Yusuf nomiga nisbat beriladi va bu Sharqda go‘zallik, xushro‘ylik timsoli hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz joizki, dostonida qo‘llanilgan o‘z va o‘zlashgan qatlamga mansub so‘zlar tarixan kelib chiqishi turli xil. Ular anglatgan ma’nolar ham rang-barang. Ilmiy izlanishlarimiz va tadqiqotlarimiz mobaynida shu kabi o‘zlashgan va o‘z qatlamga kiruvchi nomlarni o‘rganamiz hamda tahlilga tortamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006.
2. Сатторов Ғ.Х. Ўзбек исмларининг туркий қатлами. Н.Д.А. - Тошкент, 1990.
3. Xalq og‘zaki ijodi. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi. Nashrga tayyorlovchi: Malik Murodov. –Toshkent: Yangiyul Poligraph Service,2019. -208 b.
4. Э.А.Бегматов. Ўзбек исмлари маъноси: (Изоҳли луғат). –Т,: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007 – 608 б.

¹⁴ Э.А.Бегматов. Ўзбек исмлари маъноси: (Изоҳли луғат). –Т,: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007, 344-бет.

¹⁵ Xalq og‘zaki ijodi. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi. Nashrga tayyorlovchi: Malik Murodov. –Toshkent: Yangiyul Poligraph Service,2019. 11-бет.

¹⁶ Э.А.Бегматов. Ўзбек исмлари маъноси: (Изоҳли луғат). –Т,: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007, 524-бет.

